

ASHTARXONIYLARNING BOSHQARUV TIZIMI

Xakimov Jahongir Nematjon o‘gli

**(Toshkent kimyo-texnologiya
instituti Shahrisabz filiali)**

Annotatsiya: Ushbu tezisda Ashtarxoniylar davridagi boshqaruv tizimidagi amalga oshirilgan ishlar keltirilgan. Unda davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo‘lib, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega ekanligi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Xon, dargoh, qo‘shbegi, dargoh, Joniylar.

Shayboniylar hukumronligi oxirlaruida davlat zaiflashib boshqaruv tizimida inqiroz boshlandi. Shayboniylar 1601-yil inqirozga yuz tutib, Ashtarxoniylar hokimiyatga keldi. Ashtarxoniylar davlati tizimi o‘z tuzilishiga va moxiyatiga ko‘ra Shayboniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmasdi. Xon rasman oliy xokimiyat boshlig‘i xisoblanardi va barcha farmon va qonunlar uning nomi bilan chiqarilar edi. Biroq, amalda ko‘pgina ashtarxoniy xonlar yirik saroy amaldorlari qo‘lida o‘yinchoq bo‘lib, joylardagi davlat boshqaruvi viloyatlar xokimlari qo‘liga o‘tib qolgan edi. Bu esa o‘z navbatida markaziy xokimiyatning zaiflashuvi va siyosiy-iqtisodiy inqiroziga olib kelar edi.

Ashtarxoniylar davrida Buxorodan keyingi eng nufuzli shaxar Balx bo‘lib, uni taxt vorisi boshqargan. Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo‘lib, markaziy va maxalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Markaziy boshqaruv xon saroyi amaldorlari qo‘lida bo‘lib, ashtarxoniylar davrida otaliq mansabiga ega shaxs katta mavqega ega bo‘lardi. Saroy amaldorlari va ularning vazifalari esa Shayboniylar davridagidan uncha farq qilmas edi. Ashtarxoniylarda xarbiy va ma‘muriy amaldorlar katta xuquqlarga ega edilar. Shuningdek, diniy ulamolar ham davlat boshqaruv ishlarida katta ta‘sir o‘tkazar edilar. Ijtimoiy tabaqa shayboniylar davridagidek saqlangan bo‘lib, ulamolar, ayniqsa, Jo‘ybor shayxlarning jamiyatdagi mavqei ortib bordi.

Ashtarxoniylar davrida urush xarakatlarining ko‘plab o‘tkazilishi odatiy xolga aylanib qolgan bo‘lsada, xarbiy soxada jiddiy isloxotlar olib borilmadi. Qurollar, jang qilish uslubining eskirganligi, qudratli doimiy armiyaning mavjud emasligi Ashtarxoniylar davlatidagi xarbiy soxaning ham inqiroga uchraganligilan dalolat berardi.

Ashtarxoniylarga xos bo‘lgan o‘zaro urushlar, siyosiy tarqoqlik, soliqlarning muttasil oshib borishi mamlakat iqtisodiy axvolini inqirozli xolga solib qo‘ydi. Xunarmandchilikning asosiy markazi bo‘lgan shaxarlar xisoblansada, eng kerakli xunarmandchilik maxsulotlari ishlab chiqarish yirik qishloqlarda ham rivojlana boshladi.

Mamlakat iqtisodiy xayotida savdo-sotiqning axamiyati xatto urushlar bo‘lib turgan vaqtda ham pasaygani yo‘q. Asosiy savdo markazlari Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqalar edi. Tashqi savdoda asosan Rossiyaning turli shaxarlari (Astraxan, Orenburg, Sibirdagi shaxarlar), Xindiston, Xitoy, Turkiya, Eron, Qoshg‘ar bilan aloqalar mustaxkamlandi. Ashtarxoniylar davlatida soliq tizimi shayboniylar davlati soliq tizimiga o‘xshash xolda yuritilgan. Biroq bu davrda tinimsiz urushlar sababli aholidan soliqlar yig‘ib olish ko‘paygan. Xatto Subxonqulixon davrida bir yo‘la yetti yillik soliqni yig‘ib olishxaqida farmon berilgan va bu xalqning qashshoqlashuviga narxlarning oshib ketishiga olib kelgan edi.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ashtarxoniylar garchi davlat tepasida bir yarim asrdan ortiqroq vaqt davomida turgan bo‘lsalarda, kuchli markaziy xokimyatni saqlab qolishga erisha olmadilar, bu esa mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, xarbiy saloxiyatining tushkunlikka uchrashiga va inqiroziga olib keldi hamda XVIII asr o‘rtalaridan ular xokimyatni mang‘it amirlari qo‘liga topshirishga majbur bo‘ldilar.

Boqimuhammad mamlakatni idora qilish tizimi va soliqlarni tartibga solish, qo‘shinni qayta tashkil qilish kabi qator islohatlar o‘tkazgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik, obodonchilik ishlariga katta e‘tibor bergan.

Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi, uning zamonida na kambag‘al va na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong‘u tushishi bilan oddiy kiyim kiyib, vaziri va qo‘rchi bilan bozorlari- mahallalarni aylanib oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan bohabar bo‘lib turardi. Buni xalq bilgani uchun ham Imomqulixon hukmronligi yillari mamlakatda biron marta ham isyon ko‘tarilmagan”.

Ubaydullaxon II murakkab sharoitda Buxoro xonligini boshqargan. Iqtisodiy tanazzul va ichki nizolardan tashqari jung‘orlar (qalmoqlar)ning harbiy bosqinlari (Samarqandga hujum, qalmoqlar xurujidan qochgan qozoqlar va qoraqalpoqlarning Movarounnahr hududi (Toshkent va boshqa joylar)ga ko‘chib kelishi vaziyatni yana ham murakkablashtirgan. Ana shunday sharoitda Ubaydullaxon II davlatning iqtisodiy negizini mustahkamlashga qaratilgan choralar ko‘rgan. Avvalo u ma‘muriy sohada islohotlar o‘tkazib, davlatni boshqarishga o‘rta tabaqa: hunarmandlar va savdogarlarni jalb qilgan. Ubaydullaxon II hatto markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun yirik yer egalarining imtiyozlarini qisqartirgan. Biroq Jo‘ybor shayxlari katta siyosiy kuch bo‘lib, Ubaydullaxon II o‘tkazayotgan siyosat uchun xatarli muxolifga aylanishgan.

Ubaydullaxon II ning siyosiy faoliyatida pul islohoti ham alohida o‘rin tutadi. Ubaydullaxon II pul islohoti o‘tkazish orqali davlat xazinasini to‘ldirishni, bebosh amirlar, beklar va urug‘ boshliqlari bilan kurashda o‘z mavqegini kuchaytirish va ayrim mahalliy hokimlarning ayirmachilik intilishlarini bartaraf qilib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intildi. Biroq Ubaydullaxon II ning islohotlari badavlat tabaqalar va ayrim o‘rtahol shaharliklar tomonidan noxush kutib olindi. Ubaydullaxon II ga qarshi g‘alayonlar ko‘tarildi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi yaxshi tashkil etilgan. Ashtarxoniylar davlati tizimi o‘z tuzilishiga va mohiyatiga ko‘ra Shayboniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmagan. Xon rasman oliy xokimyat boshlig‘i xisoblangan va barcha farmon va qonunlar uning nomi bilan chiqarilar edi. Biroq, amalda ko‘pgina ashtarxoniy xonlar yirik saroy amaldorlari qo‘lida o‘yinchoq bo‘lib, joylardagi davlat boshqaruvi viloyatlar xokimlari qo‘liga o‘tib qolgan edi. Bu esa o‘z navbatida markaziy xokimyatning zaiflashuvi va siyosiy-iqtisodiy inqiroziga olib kelgan.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T., O‘zbekiston, 1997. B.
2. Amir Said Olimxon Buxoro xonligining hasrati tarixi. T. Fan, 1991;
3. Abduraimov M.A. Buxoro xonligida agrar munosabatlar tarixidan lavhalar. T. Fan, 1968;
4. Sa’dullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi; davlat va jamiyat taraqqiyoti. T. Akademiya 2000;
5. O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T. 1997;